

MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDA O‘ZBEKISTONNING AHAMIYATI VA O‘ZBEKISTON TARIXIY-MADANIY MEROSINI O‘RGANISH.

Sobirova Umida

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universitetning

Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti

Tarix yo`nalishi 223-guruh talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida O‘zbekiston hududining tutgan o‘rni hamda tarixiy ahamiyatini yoritishga qaratilgan bo‘lib, unda qadimiy davlatlar, madaniyat va savdo aloqalarining taraqqiyotiga O‘zbekiston hududida yashab ijod qilgan xalqlarning qo‘shgan hissasi bayon qilinadi. Shuningdek, mamlakatning geografik joylashuvi, boy madaniy merosi va sivilizatsiyalar chorrahasidagi o‘rni va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida ma`lumotlar beradi.

Kalit so‘zlar: Shimoliy Baqtriya (Toxariston), Ustrushona, Choch. moddiy va nomoddiy madaniyat obyektlariga, shaharsozlik madaniyati, “Sivilizatsiya” atamasi, A.Ferguyson, arab sayyohlari, Muhammad Alixon G‘afur va Rizoqulixon Hidoyat.

Аннотация: В данной статье освещается роль и историческое значение территории Узбекистана в формировании и развитии цивилизации Центральной Азии. В ней раскрывается вклад народов, проживавших и творивших на территории Узбекистана, в развитие древних государств, Великого шелкового пути, науки, культуры и торговых связей. Также приводятся сведения о выгодном географическом положении страны, богатом материальном и нематериальном культурном наследии, традициях градостроительства, а также о месте и своеобразных особенностях Узбекистана как перекрестка цивилизаций.

Ключевые слова: Северная Бактрия (Тохаристан), Уструшана, Чач, объекты материального и нематериального культурного наследия, градостроительная

культура, цивилизация, Великий шелковый путь, А. Фергюсон, Абу Райхан Беруни, Мухаммад Алихон Гафур, Ризокулихон Хидоят.

Annotation: This article highlights the role and historical significance of the territory of Uzbekistan in the formation and development of Central Asian civilization. It describes the contribution of the peoples who lived and created on the territory of Uzbekistan to the development of ancient states, the Great Silk Road, science, culture, and trade relations. The article also provides information about the country's favorable geographical location, rich tangible and intangible cultural heritage, traditions of urban planning, as well as the place and distinctive features of Uzbekistan as a crossroads of civilizations.

Keywords: Northern Bactria (Tokharistan), Ustrushana, Chach, tangible and intangible cultural heritage objects, urban planning culture, civilization, the Great Silk Road, A. Ferguson, Abu Rayhan Beruni, Muhammad Alikhon Gafur, Rizoqulikhon Hidayat.

Kirish

Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida O'zbekiston hududi muhim o'rin tutgan. Ushbu hududda turli davrlarda Xorazm, Sug'd, Shimoliy Baqtriya (Toxariston), Ustrushona, Choch va Farg'ona kabi tarixiy-madaniy viloyatlarning markazlari joylashgan. Ular o'rtasida madaniy aloqalar yo'lga qo'yilgan. Bunday o'zaro ta'sir, madaniy muloqot jarayonlari turli sulolalar tomonidan asos solingan davlatlarning rivojlanish bosqichlarida ham davom etib, natijada moddiy va ma'naviy madaniyat boyitilgan. O'zbekistonning tarixiy-madaniy merosi moddiy va nomoddiy madaniyat obyektlariga bo'linadi. Moddiy madaniyatga arxeologik yodgorliklar, me'moriy obidalar va hunarmandchilik buyumlari kiradi. Nomoddiy madaniy meros esa tasviriy san'at, so'z san'ati, an'anaviy musiqa, tomosha va raqs san'ati hamda madaniy muhit kabilarni o'z ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Qadimgi tarixning guvohi ko'hna shaharlarning xarobalari, qal'alar, uy-qo'rg'onlar

qoldiqlari, karvonsaroylar, rabot va sardobalar, ko‘priklar kabi yo‘lbo‘yi inshootlari, tosh va sopol haykalchalar, moddiy madaniyat buyumlari va boshqalar qadimgi davr va o‘rta asrlar madaniyati izlarini o‘z bag‘rida saqlab kelmoqda. O‘zbekistonning viloyatlari va tumanlarida arxeologik yodgorliklarning bizgacha saqlanib qolganlari ayrim ma’lumotlarga ko‘ra 8,5 mingga yaqindir¹. O‘zbekistonning jahon sivilizatsiyasi tizimidagi o‘rni va umumjahon madaniy merosiga qo‘shgan muhim hissasi ko‘p jihatdan arxeologik kashfiyotlar orqali asoslandi. O‘zbekiston arxeologiyasi dunyo ilm-fani darajasiga ko‘tarildi va jahondagi yetakchi arxeologiya markazlari bilan xalqaro shartnomalar tuzishga erishdi.² O‘zbekistonning qadimgi davr va o‘rta asrlar shaharlari ma’muriy, iqtisodiy, diniy va madaniy markazlari sifatida shakllanib, keng ko‘lamdagi badiiy, ma’naviy-ma’rifiy va madaniy muloqot amalga oshiriladigan makon sifatida rivojlanib keldi. Yirik shaharlarda madaniy-ma’rifiy maskanlar (kutubxonalar, madrasalar, maktablar), ixtisoslashgan bozorlar, karvonsaroylar va boshqalar bo‘lgan. Shaharlar nafaqat turli o‘lkalardan kelgan sayohlar, olimlar, savdogarlar o‘zaro muloqotga kirishadigan joy, balki iqtisodiy-madaniy hayotda, ishlab chiqarish sohasida yangiliklar almashinadigan, madaniy-ma’rifiy va diniy-falsafiy qarashlarning ham muloqot

¹ Бердимуродов А., Раимқулов А.Т. Археологик мерос: уни асраб-авайлаш барчамизнинг фуқоролик бурчимиздир // Ўзбекистон тарихи ва маданияти. - Тошкент: Tafakkur, 2011. - Б. 233.

² Бердимуродов А.Э. Мустақиллик йилларида ўзбек археологиясининг тараққиёти // Ўзбекистон археологияси мустақиллик йилларида. - Самарқанд, 2016. - Б. 3-4.

³ Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. - Тошкент: Адолат, 2001. - Б. 17.

markazlari sifatida faoliyat yuritgan.

Bugungi kunda tarixga nisbatan sivilizatsiyaviy yondashuvni qo‘llash katta ahamiyat kasb etmoqda. “Sivilizatsiya” atamasi (lotincha – “civilis” – fuqarolik) ko‘proq madaniyatning sinonimi sifatida qo‘llanilib, odamlar tomonidan yaratilgan “moddiy va ma’naviy qadriyatlarda ifodalangan jamiyat taraqqiyotining muayyan darajasini anglatadi”³.

Biroq ushbu atama XVIII asrda shotland olimi A.Fergyson tomonidan fanga dastlab kiritilgan paytda “sivilizatsiya” tushunchasi insoniyat tarixining “yovvoyilik” va “varvarlik” bosqichlariga qaramaqarshi tarzda qo‘llanilgan edi. IX asrdan boshlab arab sayyohlari va geograflari xalifalikning sharqiy hududlari – Xuroson, Xorazm, Buxoro va Toshkent vohalari, Yettisuv va Sharqiy Turkistonga sayohat qilib, bu o‘lkalar haqida turlicha ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan asarlar yarata boshlashgan. Tarixiy-geografik yo‘nalishda yozilgan bu asarlar o‘z davrida amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ya’ni xalifalikning Markaziy Osiyo o‘lkasiga nisbatan olib boradigan iqtisodiy siyosatini ishlab chiqishga, tegishli ijtimoiy-iqtisodiy sohalar bo‘yicha keng ma’lumotlarga ega bo‘lish ehtiyojini qondirishga xizmat qilgan. Bu davrda yaratilgan arab tilidagi asarlarda Markaziy Osiyoning hududlari orqali o‘tgan savdo yo‘llari va ular bo‘yida joylashgan shaharlar, ishlab chiqariladigan turli mahsulotlar, foydali qazilma konlari, savdo va hunarmandchilik ishlariga doir boy ma’lumotlar mavjud.

Rivojlangan o‘rta asrlarda XIII-XIV asrlardan boshlab mintaqah haqidagi ma’lumotlar yevropa tillarida yozilgan manbalarda ham paydo bo‘ldi. Bu davrga mansub asar mualliflarining ko‘pchiligini Markaziy Osiyoga bevosita tashrif buyurgan yevropalik elchilik missiya a‘zolari va sayyohlar tashkil etishgan. XVIII-XIX asrlarda Xivaga tashrif buyurgan Rossiya va boshqa mamlakatlar elchilari asarlarida turli ma’lumotlar yoritilgan. Misol uchun, 1842 va 1851 yili Xiva xonligiga kelgan eronlik Muhammad Alixon G‘afur va Rizoqulixon Hidoyat hisobotlarida elchilik amalga oshgan yil, oy va kunlar izchil qayd etilgan. Xorazmning tabiati va ekologiyasi, xorazmliklarning turmush tarzi va madaniyati

to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrda Parlamentga qilgan Murojaatnomasida ham tarix, tarixiy merosga munosabat masalasiga e'tibor qaratib, "Oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai – milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur. Milliy o'zlikni anglash, vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim. O'tmishga berilgan baho, albatta, xolisona, eng zarur vazifalardan,⁴ deb ta'kidlab o'tdi. O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasi tizimida tutgan o'rnini ochib beruvchi tushunchalarni shakllantirish va xalqaro miqyosda targ'ib qilish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Tarixiy-madaniy meros, ajdodlar tajribasi barcha davrlar va jamiyatlar uchun o'ziga xos ma'naviy tayanch vazifasini o'tab keladi. O'zbek xalqi dunyo xalqlari singari boy va bebaho tarixiy-madaniy merosga doimo katta hurmat va ehtirom ko'rsatib kelgan. Ajdodlar merosini o'rgangan, asrab-avaylagan va targ'ib qilib kelgan. Shu bilan birga, tarixiy-madaniy merosga munosabat masalasiga dunyo miqyosida nazar tashlasak, bugungi kunda tarixiy-madaniy merosni, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni saqlash masalasi global muammolar qatoriga kirib borayotganligini ko'rish mumkin. Zero, zamonaviy "ommaviy madaniyat" mezonlari bizning ham an'anaviy ma'naviy qadriyatlarimizni eskilik sarqiti sifatida qarab, ularni mensimaslikka chaqirmoqda. Bu xatarga qarshi turish, yoshlarda g'oyaviy immunitetni shakllantirish va yuksaltirish muammosi yechimida tarixiy-madaniy merosni, milliy madaniy an'analar va ma'naviy qadriyatlarni o'rganish hamda bilimlarni boyitish katta ahamiyatga ega. O'zbek xalqining tarixiy-madaniy merosiga sivilizatsiyaviy

³7 Му аҳаммад Алихон Ғафур. Хоразм сафари кундалиги / Форс тилидан таржимон И. Бекжонов. - Б. 14-52. ;
Ризокулхон Ҳидоят. Сафаратномаи Хоразм / Форс тилидан таржимон И. Бекжонов. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. - Б. 54-220.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. 2018 йил 29 декабрь

yondashuvni rivojlantirish jarayonida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiya markazining ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda⁵ Markaz vazifalaridan biri – O‘zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk allomalar va mutafakkirlarning jahon ilm-fani, islom dini va madaniyati taraqqiyotida tutgan o‘rni va ahamiyati, diniy bag‘rikenglik va etnoslararo totuvlik g‘oyalari hamda mashhur asarlari, o‘rta asrlarda birinchi va ikkinchi Renessans va keyingi davrlarda yashab ijod qilgan me’mor, hunarmand va rassomlarning amaliy va tasviriy san’at, xattotlik namunalarini tadqiq etish va targ‘ib qilishdan iboratdir. Shuningdek, Markazning Sharq allomalari merosida islom ilmlari, turli fanlar rivoji, musulmon olimlarning jahon ilm-faniga ta’siri va ilmiy merosiga oid masalalarning yoritilishi borasida dunyodagi xalqaro ilmiy muassasalar bilan hamkorlik aloqalari kengayib bormoqda⁶

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib shuni aytish joizki, O‘zbekiston tarixiy-madaniy merosini o‘rganish, saqlash va targ‘ib qilishda jahon ilmiy hamjamiyati tomonidan tan olingan ilmiy-amaliy usullar va sivilizatsiyaviy yondashuv qo‘llanilmoqda. Tarixiy-madaniy merosning shakllanishi va taraqqiyotida ijtimoiy, iqtisodiy, etnik, diniy va siyosiy jarayonlar moddiy va ma’naviy madaniyat rivojida asosiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil bo‘lib, moddiy va nomoddiy madaniy meros tarixiy an’analar va davriy yangiliklar uyg‘unligi asosida taraqqiy etib, asrlar mobaynida boyitilgan. Bugungi kunda o‘zbek xalqining ma’naviy hayotida yangi islohotlar davri boshlanib, madaniy-ma’rifiy sohadagi ishlarni mamlakatimizda yangi bosqichga ko‘tarish borasida davlat rahbari tomonidan bir qator muhim vazifalar ilgari surildi⁷. Ular ichida, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy

⁵Minovarov Sh. Bebaho ma’naviy meros // Fan va turmush, 2023. - No. 1. - B. 42-45.

⁶Хорезм в истории государственности Узбекистана / Ответ. ред. Э. В. Ртвеладзе, Д. А. Алимова. - Ташкент. 2013. - С. 272-294.

⁷Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга айланиши керак. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг

ishlarni sifat va mazmun jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish muhimdir. Mazkur vazifani yechishda xalqimizning boy tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi nodir madaniy me'rosini o'rganish va asrab-avaylashni kuchaytirish, unga hurmat ruhida tarbiyalashga oid ishlarni muntazam olib borish yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Бердимуродов А., Раимкулов А.Т. Археологик мерос: уни асраб-авайлаш барчамизнинг фуқоролик бурчимиздир // Ўзбекистон тарихи ва маданияти. – Тошкент: Tafakkur, 2011. – Б. 233.
2. Бердимуродов А.Э. Мустақиллик йилларида ўзбек археологиясининг тараққиёти // Ўзбекистон археологияси мустақиллик йилларида. – Самарқанд, 2016. – Б. 3-4.
3. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуқуқ тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Адолат, 2001. – Б. 17.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. 2018 йил 29-декабрь
5. Minovarov Sh. Vebaho ma'naviy meros // Fan va turmush, 2023. – № 1. – В. 42-45.
6. Хорезм в истории государственности Узбекистана / Ответ. ред. Э.В.Ртвеладзе, Д.А.Алимова. – Ташкент. 2013. – С. 272-294.
7. Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга айланиши керак. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи // Халқ сўзи, 2023, 23 декабрь.

кенгайтирилган мажлисидаги нутқи // Халқ сўзи, 2023, 23 декабрь.